

РЕЗЮМЕ. Мазкур мақолада бошланғич таълимда немис тилини ўқитиш жараёнида айрим методлардан фойдаланиш масалалари таҳлил қилинган. Зеро, ёш хусусиятини инобатга олган ҳолда, чет тилини ўргатишда, таълим жараёнининг турли босқичларида ўйин методларидан фойдаланиш мумкин. Бу мамлакатимизда чет тилини ўргатишга булган қизиқишни ривожлантиради ва таълим самарасини оширади.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются вопросы преподавания иностранного языка на начальном этапе. Использование различных игровых приёмов на уроках способствует формированию дружного коллектива, роста коллективного знания иностранного языка в классе.

SUMMARY. This article shows ways to increase the effectiveness of teaching in German language classes using pedagogical technologies, games in the classroom, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use.

TARBIYA DARSALARIDA 5-7-SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH NATIJADORLIGI

O.Eshimbetov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: kitobxonlik dasturi, badiiy adabiyot, lug'at, ensiklopediya, nutq madaniyati, motivatsiya, o'qish uchun ko'rish, tanishtiruvchi o'qish, o'rganuvchi o'qish, mutolaa madaniyati.

Ключевые слова: программа чтения, художественная литература, словарь, энциклопедия, культура речи, мотивация, просмотр для чтения, ознакомительное чтение, обучающее чтение, культура чтения.

Key words: reading program, fiction, dictionary, encyclopedia, speech culture, motivation, reading view, introductory reading, learning reading, reading culture.

Kirish. Jamiyat hayotiga yangi axborot texnologiyalarining keng ko'lamda kirib kelishiga qaramay, olimlarning fikricha, kitob hozirgacha va bundan keyin ham mustaqil bilim olishning asosiy va tengsiz omili bo'lib qoladi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki kundan buyon pedagogik adabiyotlarda o'sib kelayotgan avlodning tarbiyasida kitobning tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dakabrdagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 781-sonli qarori qabul qilindi [1].

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqola umumta'lim maktablarining Tarbiya darslarida 5-7-sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish natijadorligiga qaratilgan. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish va rivojlantirishga oid ilmiy ishlar mavjud. Jumladan o'zbek tilida S.Chinieva, M.Inomova, SH.SHodmonova hamda M.Nigmatovalarning tadqiqotlarida aynan kitob mutoala madaniyati bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tarbiya fani uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etildi. Mazkur fanni o'qitishdan asosiy maqsad uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga "umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish" [2] dan iborat.

Natijalar. Tarbiya fanining mazmuni va metodik ta'minoti tarkibida ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash, o'z huquq va burchlarini teran anglatish, jamiyatga daxldorlik hissini tuyishlari nazarda tutiladi. Shuningdek, notanish vaziyatlarda duch kelgan muammolar yuzasidan zarur xulosalar chiqara olish, bir qator yechimlar ichidan muhimini tanlashga o'rgatish usullari ham belgilangan [2].

Umumiy o'rta ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitish orqali 5-7-sinf o'quvchilarida quyidagi kompetensiyalar shakllantirilishi ko'zda tutilgan:

Tarbiya fanidan boshlang'ich sinflarda (A2), 9-sinflarda

(A2) va 11-sinf o'quvchilariga qo'yiladigan minimal malaka talablarida har bir bosqichda ma'naviy-axloqiy tarbiya berishga e'tibor qaratilish, o'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, estetik tarbiya berish masalasi o'rin olgan [2].

Bizningcha, belgilangan kompetensiyalar mazmunidan Tarbiya fanining o'quv dasturi va darsliklari mazmunida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga alohida urg'u berilgani ma'lum bo'ladi. Xususan, bunda milliy an'analar, ulug'allomalarning hayot yo'llari, asarlari va zamondosh qahramonlarning faoliyati qamrab olingani bilan ahamiyatlidir.

O'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish fanga qo'yilgan malakaviy talablarning to'liq ta'minlanishiga olib keladi. Bular sinflar kesimida quyidagicha belgilangan:

5-sinf uchun malaka talablari

Shaxs sifatida o'zini anglaydi; xatti-harakatlarini tahlil qila oladi; favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni biladi.

6-sinf malaka talablari

O'z faoliyatini tahlil qiladi baholaydi; o'zini o'zi rivojlantiradi; o'z majburiyatlarni bajaradi; muloqotga kirisha oladi; hamkorlikda ishlaydi; o'z-o'ziga hurmat ko'rsatishga odatlanadi; ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amal qiladi.

7-sinf uchun malaka talablari

Jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi; kreativ sifatlarini namoyon qiladi; mediamadaniyatga ega bo'ladi [3].

Fanni o'qitishga qo'yilgan talablar hamda o'quv dasturi mazmunidan kelib chiqqan holda adabiyotlar ro'yxati shakllantirildi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilish jarayonlarining shakllanganlik darajasiga ko'ra badiiy asarlar mavzusi va tarbiyaviy ahamiyati jihatidan guruhlashtirildi. Natijada o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalari ma'lum darajada o'rnatilgan muvaffaq bo'lindi.

Tarbiya fani darslarida o'quvchilarning ma'naviy sifatleri va estetik didlarini tarbiyalash, oilalar bilan hamkorlik ishlarini mustahkamlash, o'qishga doir dolzarb muammolarni hal qilish samarali bo'lib, bu borada

innovatsion texnologiyalar ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, "Loyiha asosida o'qitish", "Qiziqishlar asosida ta'lim berish", "Art-fest", "Namuna ko'rsatish", "Misollar orqali o'qitish" kabi ta'limning ilg'or texnologiyalari ham kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda alohida ta'sir kuchiga ega. Jumladan, "Taqriz" texnologiyasi o'quvchilarning kitobxonlik darajasini oshirishdagi samarali yondashuvlardan biridir. Bunda baholar taqrizning har bir bandi bo'yicha beriladi. Kitob haqidagi ma'lumotlar juda kam, chunki o'quvchilar yoki tinglovchilar mavjud ma'lumotni bilishadi deb taxmin qilinadi.

Kitobni ijodi o'rganilayotgan muallifning boshqa kitobi yoki shu mavzudagi boshqa kitob bilan taqqoslash; kitob to'g'risida to'g'ri va mulohazali fikr bildirish (qiziqarli, ko'ngilochar, ilhomlantiruvchi va h.k.) taqriz tarkibidagi yana bir jihatlardan hisoblanadi. Jarayonda o'quvchilarga kitob mazmuni xususida "Bu qalbingizni o'rtadimi?", "Sizni o'ylashga majbur qildimi?", "Agar siz boshqalarga uni tavsiya qilsangiz, nima uchun, nimasi bilan bu juda yaxshi ekanligini tushuntiring", "Hisobot va taqrizni tayyorlashda xolis bo'ling", "Ijobiy kayfiyatni namoyish eting, salbiy gaplardan qoching", "Taqqimot paytida do'stona munosabatda bo'ling" kabi murojaatlardan o'rinni foydalanish maqsadga muvofiq.

Ish jarayoni har biri alohida vazifalarni o'z ichiga oladigan bosqichlardan iborat:

1-bosqich. Tinglovchilarni kitobni o'qiganlar va o'qimaganlar guruhiga ajratish. Har bir guruhga vazifa berish.

Kitobni o'qigan guruh uchun vazifa (1-guruh):

a) ma'ruzachi (taqrizchi)ning fikriga qo'shilasizmi yoki yo'qmi?

b) kitob haqida o'z fikringizni bildiring.

Kitobni o'qimaganlar guruhi uchun topshiriq (2-guruh):

a) ular kitobni o'qib chiqishadimi, qaror qabul qilish;

b) ularni qiziqitirgan savollar bering.

2-bosqich. Hisobotni tinglagandan so'ng, aniqlik kirituvchi savollar beriladi. Qaydlarni yozib bo'lgach, 1-guruh a'zolari o'z fikrini bildirgan holda, o'z taqqimot rejasini ustida o'ylab ko'rishadi (2-3 daqiqa). Masalan, "Boshqa fikr bilan tanishdim", "Yangilikdan xabardor bo'ldim" va h.k.

3-bosqich. 2-guruhning tinglovchi a'zolari taqqimotchiga o'z savollarini yozadilar va qisqa qaydlar qiladilar. 2-guruh ishining maqsadi keyingi oy uchun o'qiladigan kitoblar ro'yxatini tuzishdan iborat.

4-bosqich. Xulosa chiqarish. 2-guruhning har bir a'zosi anjuman davomida o'zi tomonidan tuzilgan 3-4 ta kitobdan iborat ro'yxatini e'lon qiladi. Nima uchun ushbu kitob ma'lum bir joyda joylashganligini tushuntiradi. Masalan, "Men muallifni yaxshi ko'raman", "Mavzu meni qiziqitirib qo'ydi", "Personajlar menga yoqdi", "Kitob taqqimoti ma'qul bo'ldi" kabi.

5-bosqich. Anjumanni baholash: o'quvchilar nimani o'rgangani, yana nimani o'qishni xohlashlari aniqlanadi.

Ushbu tavsiflangan o'quv anjumani olti kishilik guruhda ikki astronomik soatni oladi. Bu guruhning sonli tarkibini rejalashtirishda e'tiborga olinishi kerak.

Tarbiya darslarida munozarali usullardan foydalanish kitobxonlik faoliyatining eng samarali strategiyalaridan biri hisoblanadi. Agar munozara badiiy matn materiali bo'yicha tashkil etilsa, unda quyidagilar munozara mavzusiga aylanishi mumkin:

matnning g'oyaviy-mazmunli jihati va muallif ko'tarayotgan muammo;

asarni yaratgan muallif shaxsi;

ijodkorni ilhomlantirgan manbalar va asarni yaratishga undagan sabablar;

asar talqini va matn bo'yicha o'quvchilar qarashlarining turlari;

muallif qo'llagan til vositalarining roli;

asarning ijtimoiy madaniy sharoiti;

matndagi tafsilotlar roli va boshqalar.

Guruhda munozara tashkil etishning maqsadi – o'quvchining matndagi asosiy g'oya va axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Navbatdagi vazifa – matndagi antonim so'zlarni topish hamda ularning matndagi rolini belgilash, shuningdek matndagi qarama-qarshilik (antiteza)ni aniqlash. Munozara yakunida o'qituvchi bolalarni amalga oshirilgan ishdan so'ng matnni tushunishda qanday yangilik paydo bo'lganligi haqidagi savolga javob berish yo'li bilan hissiy faoliyatga undaydi.

Maktab o'quvchilarining nutq faoliyatini faollashtirish uchun qur'a tashlash jarayonida taqsimlanadigan guruhdagi rollar nuqtai nazaridan muhokama yuritishni taklif etish mumkin (masalan, "Navqironlik", "Etuklik", "Keksalik" yoki "Optimizm", "Pessimizm"). Munozarada ekspertlar tanlash guruhlarning ishini baholash mezonlarini belgilash va faollashtirishning usuli bo'lishi mumkin.

Tarbiya fanini o'qitishda oilaviy an'analar va tarbiya usullariga tayanish ham muhim jarayon sanaladi. Zero, har bir oila o'ziga xos an'ana, boy ijodiy-intellektual boylikka ham ega. Ana shu ma'naviy-madaniy boylikni o'rganish, undan jamiyat taraqqiyotida foydalanish, kelgusi avlodlarga etkazish uchun ham bilim va tafakkur manbai kitobxonlikni oiladan boshlamoq zarur. Lekin bu muammo O.Sharofuddinov ta'kidlaganidek, "Keng ma'nodagi kitobxonlik masalasi faqat chaqiriqlari da'vat bilan, xitob shiorlar bilan hal bo'ladigan masala emas... ma'naviyat masalalariga juda katta ahamiyat berayotgan, uni har bir fuqaro qalbiga etkazish tadbirlarini juda jiddiy o'ylayotgan jamiyat... bu yo'ldagi dasturiga kitobxonlik dasturini ham qo'shib qo'ymasa bo'lmaydi" [4]. Olim buni bejiz ta'kidlamaydi. Chunki, bolalarni kitob vositasida tarbiyalash juda qiyin jarayon. Shu bois ham mutolaa qilinayotgan asarlarning syujeti bolalar va uning oila a'zolari uchun tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi, ularda ezgu sifatlarni shakllantirishi, bilim olishga qiziqitirishi muhim sanaladi. Ana shundagina kitobxonlik o'smir ma'naviyatini shakllantirishga yordam beradi.

Bunda ota-onaning ma'naviy dunyosi, xulq-odobi, orzu-umidlari, hayotiy tajribasi, an'analari va kasbi katta yordam beradi. Chunki kitobxonlik madaniyatining ilk kurtaklari dastlab oila bag'rida ko'z ochadi.

Ayonki, oilaviy kitobxonlikning ildizlari uzoq o'tmish bilan uzviy bog'liq. Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasining oila kitobxonligi va axloqiy tarbiyaga borib taqalishi shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni masalasi bilan bog'lab o'rganishga asos bo'ladi. Bu borada tadqiqotchi M.Jo'raevning inson ma'naviy olamini yaratishda kitobning ahamiyati haqidagi fikrlari o'rinnidir. Uning fikricha, kitob insoni yashashga o'rgatadi, umr mohiyatini anglashga yordam beradi hamda ma'naviy jihatdan yuksaltiradi [5].

Kitobxonlik insonni ma'naviy boyitib, uni ma'rifiy kamolot sari etaklaydi. Zero, insonning shaxs sifatida shakllanishi ma'naviy tafakkur ildizining qanchalik chuqur va mustahkamligiga bog'liq. Bu mustahkamlik esa kitob o'qish, o'qigan kitobning eng muhim nuqtasini ilg'ab olishdan iboratdir.

Barkamol avlod tarbiyasida oilaviy kitobxonlikning roli masalasi mamlakatimizda S.Chinieva, M.Inomova,

Sh.Shodmonova hamda M.Nigmatovalarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, M.Inomovanning ilmiy izlanishlarida bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ularning bilim olishiga oilada asos solinishi va takomillashib borishi tadqiq etiladi [6]. Sh.Shodmonovanning izlanishlarida esa boshlang'ich sinf o'quvchilari axloqiy kamolotida ota-onalarning bolalar bilan xalq og'zaki ijodi namunalaridan, o'yinlardan foydalanishi haqida qiziqarli misollar keltiriladi [7].

Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirda kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Buning uchun esa kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Bunda dastlabki turtki oilada bolaga o'qib berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini his etishidir. Ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi, o'smirlik davrida faoliyatining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, ijod bilan bog'liq bo'lib, hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki o'quvchi hayotini ijodiy mehnat, e'taklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin. Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, ana shunda uning hayoti mazmunsiz, ma'naviy qashshoq emas, balki voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi [7].

Kitobxonlik madaniyati rivojiga, avvalo, oilada ota-ona tomonidan e'tibor qaratiladi. Kitobxonlik, kitob o'qish farzand voyaga etayotgan oilaning o'qimishlilik darajasiga bog'liq. Chunki o'qimishlilik oilada kitobxon voyaga yetadi. Tadqiqotchilar o'qimishlilikning uch shartini keltiradilar: birinchisi, ilm olmoq, ya'ni ilmlilik bo'lsa; ikkinchisi olgan ilmidan to'g'ri xulosa chiqarib, hayotga to'g'ri tatbiq eta olish; uchinchisi esa bilimi natijasida fikrlashga o'rganish, to'g'ri fikr yuritishdir [8].

Xulosa. To'g'ri fikr yuritadigan inson esa ma'naviy, aqliy jihatdan yuksala boshlaydi. Lekin bu ma'naviy yuksalish, ilmiy adabiyotlar, hayot qonuniyatlari haqidagi bilimlar vositasida amalga oshsa, aql bilan idrok etilsa, badiiy asarlar esa his-tuyg'ular, qahramonlar ruhiyati orqali

yuz beradi. Badiiy asarlardagi his-tuyg'ular kitobxonlikni tarbiyalaydi. Natijada kitobxon o'qilgan kitobdagi voqea-hodisalarni his eta oladigan, qahramonlar xarakterini muhokama etadigan, asardagi voqea-hodisalar bilan hayotdagi voqelikni qiyoslaydigan bo'ladi. Bu esa faqat kitobxonni emas, u orqali oila boshqa a'zolarining ham ma'naviy saviyasini ko'taradi, natijada oila mustahkamligiga sabab bo'ladi.

O'qish madaniyatini tarbiyalash sohasidagi ishlarni birgalikda va hamkorlikda olib borish lozim. Bu borada maktab va oilaning roli kattadir. Chunki oila bola tarbiyasida boshlang'ich va asosiy rol o'ynaydi. Hamma oilalar uchun bir xil umumiy tarbiyaviy formula yaratish mumkin emas. Biroq oilalarda tarbiyaning butun bir tizimi yaratilganki, uni har bir oila o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llasa yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Oila, maktab va mahallaning o'zaro hamkorligi farzandning barkamol bo'lib ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham aynan shu uch omil asosiy mezon hisoblanadi. Hali ijtimoiy muhit, borliq, o'zaro munosabatlar yuzasidan yetarli tasavvurlari shakllanmagan bolalarga ularning didi, tafakkuri va tushunchasiga mos kitoblarni tavsiya etish, maromiga yetkazib ifodali o'qib berish ota-onalar va tarbiyachilar zimmasidagi mas'uliyat hissini oshiradi. Bola kitobning ahamiyati, undan qanday foydalanish, uni qanday asrash haqidagi tushunchani dastlab oilada ota-onadan o'rganishi lozim. Har bir bolaning o'ziga xos xususiyati, yurish-turishi, qobiliyati va imkoniyatlarini ota-onasi biladi. Shuning uchun ham bolaning kitobni to'g'ri tanlashida, undan oqilona foydalanishida hamda kitobga muhabbat qo'yishida ota-onaning roli nihoyatda katta.

Ota-onalar yordamida bolaga tavsiya etiladigan kitoblar, albatta, badiiy yuksak saviyada bo'lishi kerak. Tavsiya etiladigan kitoblar bolaning yoshi, psixikasi, o'qish va tushunish qobiliyatiga mos kelishi maqsadga muvofiq. Shu tufayli yozuvchilar bolalar uchun kitob yozayotganlarida mana shu jihatga alohida e'tibor beradilar. Kitoblarni tavsiya etishda ota-onalarning o'zlari kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda «2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi 781-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyunda «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 422-son qarori. <https://lex.uz/docs/4885018>
3. Umumiy o'rta ta'limning tarbiya fanidan davlat ta'lim standarti. <https://lex.uz/docs/-4885018>.
4. Sharofuddinov O. Kitobsiz yashab bo'lmas. O'zAS, 1999-yil 24-sentyabr. № 3. 8-39-b.
5. Jo'raev M. Kitobim: Noshir hikoyasi. –Toshkent: «O'zbekiston», 1976. 179-b.
6. Inomova M.A. Pedagogicheskie osnovy ispolzovaniya naitsionalnyx sennostey v duxovno-nravstvennom vospitanii detey v seme: Avtoref. ...diss. dok. ped. nauk. – Tashkent: TGPU im. Nizami, 1998.
7. Shodmonova SH.S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: 2001. 142-b.
8. Chinieva S.A. O'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar ma'naviyatini shakllantirish: Ped. fan. nomz. ...diss. –Toshkent: 2006. 19-b.

REZYUME. O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda 5-7-sinf tarbiya darslarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish samaradorligi, metodik (matn ustida ishlash, tahlil, taqriz, munozara) tizimi va didaktik ta'minoti (kitobxonlik dasturi, badiiy adabiyot, lug'at, ensiklopediya) mutolaaga muttasil va muntazam rag'batlantiruvchi strategiyalar (kitob tanlash, faol o'quvchi, o'qish ekrani, ma'lumot kartochkasi, anjuman)ni integratsiyalash asosida takomillashtirish jarayoni haqida ma'lumot berilgan.

РЕЗЮМЕ. Эффективность развития культуры чтения на уроках воспитания 5-7 классов в формировании культуры чтения у учащихся, совершенствование методической системы (работа над текстом, анализ, рецензия, дискуссия) и дидактического обеспечения (программа чтения, художественная литература, словарь, энциклопедия) на основе интеграции непрерывных и регулярных стратегий поощрения чтения (выбор книги, активный ученик, экран чтения, информационная карточка, конференция).

SUMMARY. Improvement of the effectiveness of developing reading culture in upbringing lessons in grades 5-7 in the formation of reading culture in learners, the system of methodological (working with text, analysis, review, discussion) and didactic support (reading program, fiction, dictionary, encyclopedia) based on the integration of continuous and regular stimulating strategies for reading (book selection, active learner, reading screen, information card, conference).